

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”
Buxoro davlat pedagogika instituti
rektori B.B.Ma’murov
2026-yil “5” sentabr



09.00.03 – “Falsafa tarixi ” ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihoni

DASTURI

Annotatsiya


Ushbu dastur 09.00.03 – “Falsafa tarixi ” ixtisosligi bo'yicha kirish imtihoni mutaxassislik fanidan imtihon bo'yicha mutaxassislar, talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini, uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu asosida bilimlar tarmog'ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog'lik bilishini aniqlab berishi, talabgorning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganlik darajasini aniqlash doirasida tuzilgan bo'lib, unda o'qitish metodikasining umumiy masalalari bilan bir qatorda har bir fanning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talabalar, imtihon savollaridan namunalar keltirilgan.

Ushbu dastur institut kengashining 2026 yil “28”
avgust dagi 1 sonli majlisida tasdiqlangan.

Tuzuvchi: falsafa fanlari doktori(DSc), A.Z.Sharipov



Taqrizchilar: falsafa fanlari doktori (Dsc), prof. X.X. Raxmatova
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) Z.I. Narziyev



KIRISH

Hozirgi kunda madaniy rivojlanishda milliy ma'naviy merosimizni chuqur o'zlashtirish, boshqa xalqlar, mamlakatlar madaniyati fani, falsafasi yutuqlaridan bahramand bo'lish va shu asosda milliy madaniyatimizning umumjahon madaniyatining yutuqlari bilan doimo boyib borishiga erishish nihoyatda muhimdir. Falsafa tarixini doktorant va tadqiqotchilarga o'qitishdan maqsad ularda falsafaning kelib chiqishi, evolyutsiyasi, bugungi holati, insoniyat hayotida tutgan o'rni to'g'risida chuqur ilmiy tushunchalar hosil qilish, shuningdek, ularda turli xil mifologik, diniy falsafiy oqimlarning kelib chiqishi, rivoji va yo'nalishlari to'g'risida ilmiy xulosalar chiqara oladigan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, falsafiy ta'limotlarni asosli tahlil qilishga imkon beradigan ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu maqsadga erishishda o'tmishdagi mutafakkirlarning asarlari, turli tarixiy manbalar, xususan, arxiv xujjatlari, maxsus adabiyotlar doktorantlar, tadqiqotchilar ilmiy ishlari uchun zaruriy nazariy asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Doktorant va tadqiqotchilar ularni ob'ektiv tarzda tahlil qilishi, to'g'ri va haqqoniy ilmiy xulosalar chiqara olishi kerak. Dastur to'rt qismdan iborat bo'lib, unda jahon falsafiy ta'limotlarining tarixi hududiy bo'linish va davrlashtirish asosida berilgan, xususan, har bir qismda ma'lum bir xududga oid falsafiy qarashlarning mohiyati davriylik asosida bayon qilingan.

DASTUR MAVZULARI

Qadimgi Yunonistonda falsafaning shakllanishi va rivojlanishi.

Ioniya falsafasi. Qadimgi Yunonistonda er. avv. VI asr o'rtalari - V asr boshida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat. Milet maktabi. Fales (625-547 er. avv.) – birinchi qadimgi yunon olimi. Uning matematika va astronomiya rivojiga qo'shgan hissasi. Matematika va deduktiv nazariy ilmlarning uning dunyoqarashini ratsionalizatsiyalashtirishdagi ahamiyati. “Suv – birinchi ibtido” konsepsiyasining yaratilishi va mohiyati. Fales gilozoizmi, uning mifologik tassavvurlar bilan bog'liqligi va ulardan farqi. Anaksimandr (er. avv. 610-546 yillar). Apeyron tushunchasi, uning birinchi ibtido sifatidagi funksiyasi. Dastlabki nomifologik kosmogoniyasi. Tabiiy qonuniyat, uning ijtimoiy va antropomorf talqini. Anaksimen (er. avv. 588–525 yillar) ta'limotning antimifologik yo'nalishi. Havodan boshqa stixiyalarning yuzaga kelishi, havo va jon masalalarining qo'yilishi. Efesslik Geraklit (er. avv. 544–480 y). Logos tabiiy zaruriyat g'oyasi shakllanishning ifodasi. Geraklit inson va uning ongi, joni haqida. Bilishda hissiyot va aqlning roli to'g'risida. Geraklit dialektikasi: borliqning umumiy oquvchanligi, o'zgaruvchanligi haqidagi qarashlari. Pifagor (er. avv. 580-500 yillar), uning falsafiy ta'limoti. Ilk pifagorchilarning diniy-ahloqiy qarashlari. Pifagorchilarning matematika rivojidagi roli, ularning astronomik qarashlari va kosmos haqidagi tasavvurlari. Sferaning xamohangligi (garmoniya) haqidagi ta'limotlari. Sonning borliq ibtidosi sifatida asoslanishi. Pifagorchilarning qarama-qarshiliklar haqidagi ta'limotlari. Eley falsafiy maktabining shakllanishi. Ksenofan ta'limotidagi qarama- qarshlik. Parmenid (er. avv. 540-515 y) Eley

falsafiy maktabining yirik vakili. Parmenidning bilish nazariyasi, uning aql va hissiyot to'g'risidagi qarashlari. Parmenidning fizikaviy va kosmologik qarashlari. Eleylik Zenon (490-430 y)ning harakat va ko'plikka qarshi chiqishi. Zenon aporiyalarining mohiyati, ularning antik matematika, fizika va mantiqning rivojiga ta'siri. Empedokl (er. avv. 490-430 yillar)ning borliqning ildizlari haqidagi ta'limoti. Jismlarning zarrachalari, ularning jismlarning paydo bo'lish manbai ekanligi to'g'risidagi qarashlari. Muhabbat va yovuzlik – tabiiy jarayonlarini harakatga keltiruvchi kuchlar sifatida. Anaksagor (er. avv. 500-428)ning falsafiy ta'limoti. Uning materiya haqidagi qarashlari. “Urug‘lar” (gomeomeriyalar) va jismlarning yuzaga kelishi, materiyaning yo‘q bo‘lib ketmasligi. “Nous” (aql) tabiiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuch.

Sofistlar. Suqrot va Suqrot maktablari.

Sofistika - er. avv. V-asrning ikkinchi yarmi VI-asrning boshlarida yuzaga kelgan ratsional oqim. Quldorlik demokratiyasining yutuqlari va fuqorolarning gumanitar ta'limga ehtiyojlarining oshishi. Afina - Qadimgi Yunonistondagi ta'lim va madaniyatning markazi. Pullik ta'limning vujudga kelishi. “Sofist” atamasining paydo bo'lishi. Sofistikaning falsafa tarixidagi o'rni. Zamondoshlari tomonidan sofistika baho berish va bu hodisaga yondashishda yuz bergan o'zgarishlar. Protagor (er. avv. 480-410 yy.)ning barcha mavjudlikning oquvchanligi to'g'risidagi ta'limoti. “Inson-barcha narsalarning mezon” g'oyasi. Haqiqatni tushunishdagi sensualizmi, relyativizmi va sub'ektivizmi. Gorgiy va uning bilib bo'lmaslik va borliqning yo'qligi haqidagi mulohazalari. Sofistlarning diniy skeptitsizmi va miflarni tabiiy talqin qilishlari. Sofistlarning katta guruhining ijtimoiy – axloqiy qarashlari. Likafron va Alkidamant insonlar tengligi haqida. Kritiy, Kallikl va Frazimaxlar – demokratiyaning dushmanlari. Kritiy dinlarning kelib chiqishi haqida. Suqrot (er. avv. 470/ 469-399 yy.)ning hayoti va ijodi. Davlat, uning faoliyatiga munosabati. Suqrotning o'limi. Suqrot qarashlari haqida manbalar, ma'lumotlar. Suqrot falsafasining antropologik mohiyati. Naturfalsafaning inkor etilishi va falsafaning hayot tarzi ma'nosida tushunilishi. Suqrot “mayevtika”si. Suqrotning axloq haqidagi doktrinasi. Suqrotchilar maktablari. Antisfen – kiniklar maktabining asoschisi. Antisfenning sensualizmi va umumiylikning realligini inkor etishi. Sinoplik Diogen va kiniklarning axloqiy qarashlari. Kiniklarning ellin madaniyati tarixidagi roli. Kiren maktabi. Aristipp ta'limoti, uning sensualizmi va gedonizmi. Feodor “Xudosiz” haqida. Keyingi davrdagi kiniklarning pessimizmi. Megar maktabi. Evbulid va megarliklarning ratsionalizmi. Evbulid va kirenlik Diadorning sofizmi. Stil'pon ta'limoti. Megarliklarning mantiqni rivojlantirishdagi roli.

Klassik Yunon falsafasi. Qadimgi yunon atomizmi.

Abderlik Demokrit (er. avv. 460-370 yy.). Atomistik prinsiplarning rivojlantirishi. Atomizm - tabiat hodisalarini universal tushuntirish prinsipi. Demokrit determinizmi: zaruriyat kategoriyasi va uning sababiyat bilan

bog'liqligi. Tasodifiyat sababsizlikning inkor etilishi va «ilohiy aralashuv», taqdir sifatida. Demokritning kosmogoniyasi va kosmologiyasi. Olamning cheksizligi va ayrim dunyolarning cheklanganligi, hayotning paydo bo'lishi haqida. Ong to'g'risidagi qarashlari. Uning gnoseologik ta'limoti. Demokritning naturalistik metodologiyasi hamda jamiyat va davlatning kelib chiqishini tushuntirishi. Platon (er. avv. 427-347 yy.) hayoti va faoliyatining asosiy qirralari, uning asarlari. Platon falsafasining nazariy manbalari. Uning idealizmining gnoseologik ildizlari. G'oyalar haqidagi ta'limoti. Yaratish muammosi va Demiurg g'oyasi. Dunyoviy jon haqida. Platonning gnoseologik ta'limoti. Sensualizm, bilimlar turlari va «xotiraga olish» masalalari. Platon dialektikasi sistema sifatida. Platonning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Jamiyatning paydo bo'lishi haqidagi ta'limoti. Platon ta'limotining o'rta asr Sharq falsafasiga ta'siri. Platonning falsafa tarixida tutgan o'rni. Aristotelning hayoti, ijodi va asarlari. O'z ustozining «g'oyalar dunyosi» ta'limotiga qarshi chiqishi va uning to'rtta e'tirozi. Aristotel fanlarning tasnifi haqida. Aristotel mantig'i va uning falsafiy tizimidagi o'rni. Aristotel sabablar va olamning ibtidosi haqida: to'rt sababning tavsiflanishi. Aristotel naturfalsafasi. Harakatning turlari haqida. Aristotelning gnoseologik ta'limoti, unda sensualizm va apriorizm elementlari. Deduksiya va induksiya o'rtasidagi munosabat. Aristotel dialektikasi. Aristotel ta'limotning O'rta asr Sharq falsafasiga ta'siri. Jahon falsafasi tarixida Aristotelning o'rni va roli.

Ellin - Rim davrida antik falsafa.

Epikur (milodiy 341-270 yy.) va uning Afinada falsafiy maktabni tashkil etishi («Epikur bog'i»). Epikur kanonikasi (qoidalari). Sensualizm haqidagi ta'limoti. Epikur etikasi va uning tomonidan gedonizmning tanqid qilinishi. Qadimgi Stoya falsafasi va uning asosiy namoyondalari: Kitionlik Zenon (336-264 y) va uning vorislari Kleanf (330-323 y) va Xrisipp (280-205 y). Stoitsizmning kinizim bilan bog'liqligi. Falsafiy fanlarning tasnifi. Stoiklarning mantig'i va bilish nazariyasi. Skeptitsizmning nazariy manb'alari Relyativizm, skeptitsizmning gnoseologik ildizlari. Elidalik Pirron (er.av. 365-275 yy.) skeptitsizmning asoschisi. Baxtli bo'lish imkoniyatining mavjudligi. Timon (320-230) – skeptitsizmning birinchi adabiy namoyondasi. Eramizning I asrida gnostitsizm diniy - falsafiy ta'limotining shakllanishi. Kreatsioonizmning panteizm bilan ko'shilishi. Valentin va Vasiliz – gnostitsizmning asoschilari. Neoplatonchilikning asosiy maktablari: Aleksandriya — Rim (eramizning III asr), Suriya (IV asr) va Afina (V asr) maktablari, ularning asosiy namoyondalari. Plotin (203-270 yy.)ning falsafiy faoliyati, uning asarlari. Birlik haqidagi ta'limoti. Nurlanish jarayoni, birlikning ko'payishi va inqirozi. Plotinning antisensualizmi va bilmimlarning mushohadali talqin etilishi, ekstaz xaqidagi ta'limotida Plotinning mistitsizmi. Prokl Afina maktabining asoschisi va neoplatonizmning sistemalashtiruvchisi. Dunyoviy jarayonning triadialik ritmi haqidagi ta'limoti. Prokl ta'limoti. Yustinian tomonidan Afina maktabining yopilishi. Antik falsafaning rasman tugallanishi.

Markaziy Osiyoda madaniyat rivoji.

Zardushtiylik diniy falsafiy ta'limotining paydo bo'lishi. «Avesto» – zardo'shtiylik ta'limotining yozma manbai. Zardushtiylikning asosiy g'oyalari. Keyingi davrlarda zardushtiylikning mazmuni va shaklining o'zgarishi. Eron va Markaziy Osiyodagi VII asr o'rtalarida va VIII asr boshlarida arablar istilosidan keyin islomning hukmron dinga aylanishi, zardushtiylarning quvg'in ostiga olinishi. Moniylar ta'limotining Eronda vujudga kelishi «Moniylik xati» alifbosining yaratilishi. Unga xristianlik va gnostik falsafiy ta'limotlarining ta'siri. Buddaviylik ta'limotining Kushonlar davrida Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan yangi dinlardan biriga aylanganligi. Markaziy Osiyoning janubiy qismi bakt davrida buddaviylik diniy-falsafiy oqimning keng tarqalganligi. Bu erda budda ta'limotining yangi oqimlaridan yana bir bo'lgan avayibxasha ta'limotining keng tarqalishi.

Islomning Markaziy Osiyo va yaqin Sharq mamlakatlariga yoyilishi.

VI asr oxiri VII asr boshlarida ya'ni islom dinining vujudga kelishi. Arab qabilalari o'rtasidagi markazlashtirishga intilish harakatlari. Islom dini asoslarining muqaddas kitoblar – Qur'on va hadislarda bayon etilishi. Qur'onga va boshqa diniy manbalarga asoslangan holda aqidalar va shariat qonunlarining ishlab chiqilishi. Islomning asosiy yo'nalishlari: oqimlari va mahzablari. Shianing mustaqil oqim sifatida VII asr oxiri VIII asrning birinchi yarmida shakllanishi, uning mafkurasini. Shialar ichida ismoiliylar va karmatlar oqimining vujudga kelishi. Imom Muxammad Mahdi haqidagi ta'limot. Mu'taziliylar (arabcha - ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar) ta'limotining ilk islom ilohiyoti oqimlaridan biri ekanligi, uning xalifalikda rasmiy e'tiqod sifatida tanilishi. Mutavakkil (847-861 yy.) davrida bu ta'limotning taqiqlanishi, ilk islomga qarshi bo'lgan oqim vakillari - shialar, xoriijiyalar boshqa din ahllari - yaxudiylar, hureamiylar qatori muta'ziliylarning ham ta'qib ostiga olinishi. Sufiylik (sufizm, tasavvuf)ning islomdagi falsafiy oqim sifatida VIII asrda arab mamlakatlarida vujudga kelishi. So'fiylar tomonidan shaxsiy istakdan voz kechish g'oyasining targ'ib qilinishi. So'fiylikda neoplatonizm ta'limoti. Abu Hamid Muhammad ibn al-G'azzoliy tomonidan tasavvufning ortodoksal islom ta'limoti bilan yaqinlashtirilishi, uning keyinchalik rasmiy ta'limot sifatida tan olinishga yo'l ochib berilishi. Movarounnahrda sufiylik oqimining Yusuf Hamadoni (XII asr) tariqatida boshlanganligi, keyinchalik unda turli yo'nalishlarning paydo bo'lishi, bu yo'nalishlarnint yirik namoyondalari Abduxoliq G'ijduvoni va Ahmad Yassaviylar ta'limotlari. XIII-XIV asrlarda naqshbandiylikning vujudga kelishi.

IX-XII asrlarda Yaqin, O'rta Sharq va Markaziy Osiyoda falsafiy fikrlar.

IX - XI asrlarda Arab mamlakatlari va Eronda ijtimoiy falsafiy fikrlar. Abbosiylar hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy sharoit. Xalifalikda davlatchilik masalasi. Ilm-fan rivoji. Bag'dodda "Bayt ul hikma" ("Donolar uyi" — "Ma'mun akademiyasi")ning tashkil qilinishi va uning ilm-fan rivojidagi

roli. Markaziy Osiyolik olimlarning “Ma’mun akademiyasi”ni tashkil qilishdagi o‘rni va ilm-fan rivojidadagi roli. Abu Yusuf al-Kindiy (800-865) birinchi arab faylasufi. Al-Kindiy: hayoti va ilmiy merosi. Al-Kindiy – Arastu asarlarining sharhlovchisi. Falsafiy atamalar (terminologiya)ning ishlab chiqilishi, fanlar tasnifi va uning metodologik ahamiyati. Al-Kindiy gnoseologik ta’limotida sezgi va tafakkur masalasi, ularning o‘zaro munosabati. Haqiqat to‘g‘risidagi ta’limoti. Abul Alo al-Maari (vaf. 1017 y) dunyoqarashi. Maarriyning diniy skepsisdan hurfikrlilikka qarab borishi. Maarriy dunyoqarashida siyosiy va ahloqiy masalalar. Abu Bakr ar-Roziy buyuk eron olimi va mutafakkiri (865-925), uning hayoti va ilmiy merosi. Tabiiy-ilmiy qarashlari va uning dunyoqarash ahamiyati. Ar-Roziy – Sharqda atomistik ta’limotning asoschisi. Substansiya va aksidensiya, materiya va shakl munosabatlari haqidagi ta’limot. Gnoseologik ta’limot. “Ikki xil haqiqat”ga bo‘lgan munosabat. Ar-Roziy dunyoqarashida inson va uning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni masalasi. Ar-Roziy ijtimoiy-falsafiy va ahloqiy qarashlariga o‘rta asr mutafakkirlari va iloxiyotchilarining munosabati. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda markazlashgan mustaqil feodal davlatlarning vujudga kelishi: Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar davlatining vujudga kelishi va ularning mintqa iqtisodiy va madaniy rivojidadagi ahamiyati. Sharq Uyg‘onish davri va uning xususiyatlari. Xorazmda «Majlis ul-Ulamo» (Olimlar majlisi – Ma’mun akademiyasi)ning tashkil etilishi va tabiiy-ilmiy ilmlarning rivoji. Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sinolar tabiiy-ilmiy qarashlarining dunyoqarashidagi, ahamiyati. Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlarning vujudga kelishida xalq harakatlarining o‘rni. Abu Nasr Forobiy (873-950 yy.). Forobiy ontologik qarashlarining g‘oyaviy ildizlari. Forobiy ontologik va kosmologik ta’limotida panteizm va neoplatonizm g‘oyalari. Fanlar tasnifi. Bilishda sezgi va tafakkurning roli va munosabati haqida. Forobiy mantiqiy qarashlarining metodologik ahamiyati. Forobiy - o‘rta asrda sotsiologik ta’limot asoschisi. Hukmronlik shakllari. Davlatning kelib chiqish sabablari. Orzudagi jamoa va uning hukmronlik usuli. Inson hayotining mazmuni va baxt saodatga erishuv vositalari. Forobiy dunyoqarashining kelgusidagi ijtimoiy fikr taraqqiyotiga ta’siri. Beruniy - o‘rta asrning qomusiy olimi. Beruniy tabiiy-ilmiy qarashlarining ilmiy va dunyoqarash ahamiyati. Beruniy fan tarixchisi. Beruniy ontologik qarashlarining dialektik mohiyati. Kosmologik va kosmogonik ta’limotida ilmiylik an‘analari. Beruniy dunyoqarashida dialektika unsurlari. Ikki xil haqiqat masalasi. Beruniy sotsiologik qarashlari. Odamning kelib chiqish tarixi. Jamiyat taraqqiyotida geografik muhitning ahamiyati haqida. Karmatlar harakatiga munosabat. Beruniy ahloqiy qarashlarining insonparvarlik mohiyati. Oila va nikoh masalasi. Abu Ali ibn Sino (980-1037)ning hayoti va ilmiy merosi. Ibn Sino ontologik ta’limotida neoplatonik unsurlar. Ishroqiya (ilohiy nurlanish) falsafasi. Moddiy olam tuzilishi va rivoji haqidagi ta’limot va unda dialektika unsurlari. Kosmologik ta’limot. Borliqdagi sababiy bog‘lanishlar haqida. Ibn Sino gnoseologik qarashlari. Mantiq va uning bilishdagi o‘rni masalasi. Fanlar tasnifi. Ibn Sino jamiyat va davlat haqida. Insoniyatning jamiyatda tutgan o‘rni xaqida. Ahloqiy qarashlar va ularning insonparvarlik mohiyati. Ibn Sinoning pedagogik qarashlari. Mamlakatni boshqarishda iqtisodiy

siyosat va omillarning o'zni haqida. Dinga bo'lgan munosabati. Ibn Sino hurfikrliligi. Abu Abdulloh Xorazmiy (vaf.997) va uning "Mafotax ul-ulum" asari. Fanlar tasnifi, uning metodologik ahamiyati. Xorazmiy falsafaiy qarashlarida peripatetik falsafaning yakuniy tarzda namoyon bo'lishi. YUusuf Xos Hojibning dunyoqarashi. Uning "Qutadg'u bilig" asarida insonning ijtimoiy mohiyati, jamiyat hayotidagi o'zni, ijtimoiy vazifasi kabi masalalar. Davlatchilik va davlatning boshqarishi masalalari. Ahloqiy qarashlari. Mahmud Qoshg'ariy dunyoqarashi. Uning "Devonu lug'at at-turk" asarida xalqlar tomonidan yaratilgan ahloqiylik mezonlarining aks etishi. "Devonu lug'at at-turk" - Markaziy Osiyo xalqlarining urf-odatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy hayotining xususiyatlari haqidagi muhim manba.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo va yaqin Sharq mamlakatlarida diniy ilmlar rivoji.

Markaziy Osiyoda hadis ilmining rivoji. Imom Buxoriy va uning "Saxixi" Imom Buxoriy asari. "Saxix"da axloqiy, ijtimoiy munosabatlar masalalari talqini. At-Termiziyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari. Shariatga ijmo' ray, qiyos kabi ratsionalistik aqidalarning kiritilishi. Ularning islom mafkurasini va shariati uchun ijtimoiy ahamiyati, Termiziy asarlarining kelgusidagi ilg'or ilmiy-axloqiy qarashlar rivojiga ta'siri. Imom Motrudiy va uning "Tavhid" asari. Motrudiy islomilohiyotchilining nazariyotchisi. Motrudiy tomonidan islom aqidalarimiz mohiyatini real hayotga tadbiiq qilib talqin qilinishi. Maturidiy qarashlarining islom ilohiyotchilik tarixidagi o'zni. Sufizmning islom dini qobig'ida diniy-falsafiiy ta'limot sifatida vujudga kelishi. Sufizmning mazmuni, mohiyati, taraqqiyot bosqichlari. Sufizmning ijtimoiy va g'oyaviy ildizlari. Sufizm amaliyoti va nazariyoti. Sufizmning oqimlari. Tasavvufning irfoniiy ta'limoti. Kashf va ilhom. Muroqaba, mushohada va muhosaba. Sufizm adabiyotida ramz (simvolika)larning ishlab chiqilishi. Abu Xomid G'azzoliy, Abduholiq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviylarning merosi va tasavvufiiy ta'limotlari.

XII- XIV asrlarda Markaziy Osiyoda falsafiiy va ijtimoiy fikrlarning rivojlanishi.

Ahmad Yugnakiyning dunyoqarashi. "Hibat ul-haqoyiq"ning Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiiy fikrlar tarixini o'rganuvchi asar ekanligi. Mahmud Qashg'ariyning falsafiiy qarashlari. Chag'miniyning fan tarixida tutgan o'zni. Markaziy Osiyoda XIII – XIV asrda yarmida ijtimoiy-siyosiiy va tarixiiy ahvol. Mistik ta'limotlarning kuchayishi. Markaziy Osiyoda sufizmning turli oqimlarning vujudga kelishi va tarqalishi. Sufizm amaliyoti va nazariyasi o'rtasidagi umumiiylik va tafovutlar. Yassavizm oqimning vujudga kelishi. Yassaviyning yuksak ahloqiiy poklik va insoniiylik haqidagi g'oyalari. Yassavizmning Markaziy Osiyo halqlari ma'naviiy hayotida tutgan o'zni. Rumi y ta'limotida sufizm amaliyoti va nazariyasi munosabatlari. Uning komil inson haqidagi ta'limoti. Rumi y dunyoqarashida dialetika elementlari, olamning birligi, ularning xal qilinishi yo'llari. Rumi y merosi va dunyoqarashining tarixiiy ahamiyati. Naqshbandiiylikning ijtimoiy hayotga, mehnatga, dunyo noz-ne'matlariga, insonga, vatanga, xalqqa munosabati. Naqshbandizm da nazariya

masalalari: olamning ilohiy birligi, tabiatning ilohiyligi. Naqshbandizmning XV-XVI asr mutafakkirlari dunyoqarashiga va badiiy adabiyotga ta'siri. Pahlavon Mahmudning falsafiy-ijtimoiy va ahloqiy qarashlari. Uning dunyoqarashida ahloqiy nasihatgo'ylik, inson ma'naviy kamoloti, mehnatkash omma manfaatlari uchun o'zligidan voz kechish g'oyasining asosiy o'rin egallashi. Taftazoniyning falsafiy-ijtimoiy va ahloqiy qarashlari. Taftazoniyning islom falsafasi, kalom, mantiq, xandasa (geometriya), she'riyat va arab tili gramatikasi sohasida qilgan ishlari. Ushbu davrlardagi ilmiy-fan va madaniyatning ma'naviyatimiz tarixidagi ahamiyati.

XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyoda falsafiy fikrlarning rivoji.

XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ahvol. Mo'g'ullar istilosiga qarshi kurash. Sarbadorlar boshchiligidagi xalq harakati. Amir Temur va uning siyosiy qarashlari. Temuriylar sulolasining o'rnatilishi. Fan va madaniyatning Samarqand va Hirot maktablari haqida. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotda Temuriylar sulolasining roli. Ulug'bek (1395-1449)ning hayoti, siyosiy va ilmiy faoliyati. Ulug'bek astoronomik maktabining tabiiy-ilmiy fanlar rivojidagi roli. Ulug'bek tabiiy-ilmiy merosining ahamiyati. Ulug'bekning xurofotga qarshi kurashi va uning hur fikrlilikning rivojidagi roli. Aloviddin Ali Qushchi (1403-1474)ning tabiiy-ilmiy qarashlari va uning dunyoqarashi ahamiyati. Zahriddin Bobur (1482-1530)ning hayoti, ijodi, falsafiy-ijtimoiy va ahloqiy ta'limotlari. Bobur – yirik davlat arbobi. Abdurahmon Jomiy (1427-1492)ning borliq haqidagi ta'limotida olamning birligi masalasi. Yagona ilohiy substansiyaning o'zini namoyon qilish usuli haqida. Panteizm elementlari va tabiatning ilohiylashtirilishi va ulug'lanishi. Siyosiy-ahloqiy qarashlari. Ideal jamiyat haqidagi ta'limoti. Gumanistik g'oyalari. Diniy qarashlari. Uning Sharq perepatetik falsafasiga bo'lgan munosabati. Jomiy dunyoqarashining tarixiy ahamiyati. Alisher Navoiy (1441-1501) dunyoqarashining ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy va gnoseologik ildizlari. Navoiy dunyoqarashida imkoniyat va shakl, umumiy aloqadorlik va birlik masalalari. Bilish nazariyasi. Ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Davlatni boshqarishning podsholik shaklining asosiy prinsiplari va talablari haqida. Navoiyning ahloqiy qarashlari. Husayn Voiz Koshifiy (1505 yil vafot etgan) jamiyat va jamiyat qonunlari haqida. Koshifiy ahloq nazariyasida mehnatsevarlik, saxiylik, mardlik, zukkolik, donolik kategoriyalar. Koshifiy ijtimoiy-ahloqiy qarashlaridagi antiklerikalizm g'oyalari.

XVII-XVIII asrlarda Markaziy Osiyoda ilg'or falsafiy ijtimoiy-siyosiy va fikrlar rivoji.

XVII-XVIII asrlarga kelib ilm-fan, san'at va maorif ishlarida erishilgan asosiy yutuqlar. Mirzo Bedilning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Bedilning falsafiy qarashlari. Uning panteistik ta'limoti. Bedilning kalom va Sufizmga munosabati. Bedil olamni bilish to'g'risida. Bedil ijodida inson va insoniylik muammosi. Bedil jamiyat va davlat to'g'risida. Uning axloq-odob haqidagi qarashlari. Bedil ijodining tarixiy ahamiyati. Boborahim Mashrabning dunyoqarashi. Uning dunyoqarashida muhim o'rin olgan hurfikrli va antiklerikal g'oyalar haqida.

Mashrabning Sufizmga munosabati. Uning ortodoksal islom aqidalariga qarshi turishi. Mashrab ijodida panteistik g'oyalar. Mashrab ilgari surgan xudo haqidagi tushuncha. Uning ijodida naqshbandlik g'oyalarining o'rin olganligi. Mashrab ijodida inson va insonparvarlik g'oyalari.

XIX-XX asr boshida Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy fikrlar.

XIX asr boshida Qo'qonda markazlashgan feodal davlatning qaror topishi.. Qo'qon xonligi davrida xon saroyida to'plangan saroy shoirlarining olamning kelib chiqishi, rivoji va uni bilish to'g'risida fikrlarni targ'ib qilishlari haqida. Saroy shoirlariga qarshi taraqqiyparvar fikrdagi Maxmur, Gulxaniy, Ogaxiy, Xorazmiy kabi shoirlarning dunyoqarashlari. Ularning yaxshilikva adolat to'g'risidagi fikrlari. Ularning bu dunyodagi haqiqiy hayot, baxt-saodat va erkinlik, hurfikrlilik g'oyalarining ahamiyati. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol. Ahmad Donishning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Uning "Navodir ul vaqoe'" va boshqa asarlarida falsafiy va ijtimoiy fikrlarning bayon etilishi. Ahmad Donish davlatni boshqarish, uning shakllari to'g'risida. Uning axloqiy, estetik qarashlari. Furqatning dunyoqarashi. Furqat ijodida ta'lim-tarbiya ishlari va hurfikrlilik. Muqimiy dunyoqarashi. Uning ma'rifatparvarlik g'oyalari. Jadidlar harakatining yuzaga kelishining ijtimoiy asoslari Jadidlik oqimi mafkurachilarining jamiyatda islohotlarni amalga oshirish yo'lida muayyan tadbirlarni ilgari surishlari. Jadidlar maorif ishlarini isloh qilish zarurligi haqida. Mahmudho'ja Behbudiy (1875-1919)ning dunyoviy bilimlarni va madaniyatni targ'ib qilishi. Behbudiy tomonidan Turkistonni boshqarishni isloh qilish loyhasida milliy iqtisod va madaniyatni taraqqiy ettirish to'g'risidagi fikrlar. O'zbekistonda ilk ijtimoiy-falsafiy ta'limotlar va ularning hozirgi davr uchun ahamiyati. Sharq Uyg'onish davri va O'zbekistonda falsafiy bilimlar rivoji. Jadidlar harakatining shakllanishi.

O'zbekistonda falsafa fanining rivoji.

O'zbekistonda XX asr o'rtalarida falsafiy fikr rivoji. I.M.Mo'minovning falsafiy maktabi. O'zR FA huzuridagi I.M.Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq institutining faoliyati. O'zbek faylasuflari tomonidan Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy merosini o'rganilishi. Mustaqillik davrlarida falsafiy merosning o'rganilishining metodologik asoslari. O'zbek falsafasining shakllanishi. Milliy istiqlol mafkurasining yuzaga kelishidagi ijtimoiy, ma'naviy asoslar. XXI asrda noliberalizm va sotsial demokrati g'oyalarning rivojlanishi. Erkinlik va uning gumanistik huquqdagi ahamiyati. Ozodlik tashqi tazyiqlardan xoli bo'lish kafolati. Erkinlik inson tabiatining takomillashuvining sharti. Aql erkinlikning asosiy chegaralovchi kuch sifatida.

Mustaqillik davrida falsafiy merosning tadqiq etilishi va muammolari.

Mustaqillik davrida falsafiy merosni o'rganilishining o'ziga xos xususiyatlari. Markaziy Osiyo xalkdari falsafiy merosini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar. Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning tavalludlarining

o'tkazishga bag'ishlangan tadbirlar. Falsafiy merosni o'rganish bo'yicha ishlab chiqilgan yangicha yondashuvlar. Tasavvuf, so'fiylik ta'limotlariga oid olib borilgan tadqiqotlar. O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.A.Karimov asarlarida falsafa fani va sohalarining rivojlantirilishi. Falsafadan ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilishida O'zbekiston Respublikasi Falsafa va huquq instituti, Sharq qo'lyozmalar instituti, O'zbekiston Milliy universiteti falsafa fakulteti, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, O'zbekiston faylasuflari jamiyati faoliyatining o'rni.

O'zbekistonda falsafa fanlari rivojining an'anaviy va yangi yo'nalishlari.

"O'zbek falsafasi" tushunchasining mohiyati va mazmuni. O'zbek falsafasi rivojlanishining an'anaviy va zamonaviy yo'nalishlari: "Ijtimoiy-falsafa", "Falsafa tarixi", "Falsafa va fan metodologiyasi", "Dialektika va bilish nazariyasi", "Ijtimoiy falsafa", "Gnoseologiya", "Ontologiya", "Aksiologiya", "Bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning falsafiy muammolari", "Madaniyat tarixi va nazariyasi", "Inson falsafasi", "Siyosat falsafasi", "Huquq falsafasi", "Madaniyat falsafasi", "Tilshunoslik falsafasi", "Ekologik madaniyat falsafasi", "Din va erkin fikr falsafasi", "O'zbekiston falsafasi tarixi" va hokazolar. Faylasuf olimlarning falsafa tarixi, inson falsafasi, zamonaviy Sharq va G'arb falsafasi, O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri, ijtimoiy falsafa, dialektika va bilish nazariyasi, fan falsafasi va metodologiyasi tarixi tadqiqotlari sohasida mustaqil O'zbekiston Respublikasi falsafasini rivojlantirishga qo'shgan hissalari.

Falsafa fanida milliy g'oyaning ma'naviy-nazariy asoslari.

Ma'naviyat va ma'rifat mavzusiga oid tadqiqotlar, ularni o'quv yurtlarida o'rganish va targ'ib qilish. O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ma'naviyatga oid masalalarning falsafiy echimi. Milliy-madaniy merosni o'rganish orqali milliy g'oyaga bo'lgan ishonch va e'tiqodni mustahkamlash yo'llari. O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.A.Karimov milliy g'oya va mafkurani ishlab chiqish, uni shakllantirish uchun O'zbekistonda yashaydigan har qaysi millatning ilg'or vakillari, olimlari, xalq va Vatan ravnaqi uchun hayotini bag'ishlaydigan fidoyi ziyolilari burchi haqida. Mamlakatimizning mustaqillik yo'lidan rivojlanishi, uning jahon madaniyati va tamadduniga kirib borishining nazariy va amaliy asoslari. Mustaqillik yillarida ma'naviyat sohasida erishilgan yutuqlari.

O'rta asr G'arb falsafasining predmeti, ijtimoiy-g'oyaviy manbalari va xususiyatlari.

Xristian dinining aqidalari, ularning O'rta asr G'arb falsafaning shakllanishiga ta'siri. O'rta asr G'arb falsafasining teotsentrik mohiyati, uning rivojining asosiy bosqichlari. O'rta asr xristianlikning apologetika davri va uning o'rta asr falsafasida tutgan o'rni. Apologetikaning ko'zga ko'ringan vakillari Yustin Tatian, Tertullian, Aleksandriya maktabining vakillari Kliment, Origenlarning

